

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI TAYYORLASHDA PEDAGOGIK
INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH***Mubdi'ma G'ulomjonova – FarDU talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar, xususan, ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'rni va ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim va ko'nikmalarini shakllantirishda didaktik o'yinlar, texnologik xaritalar, interfaol metodlar va motivatsion yondashuvlarning samarasi tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion faoliyatga tayyor pedagog-tarbiyachining kasbiy sifati, ijodkorligi va metodik yondashuvlari pedagogik jarayonning muhim omili sifatida ko'rsatib berilgan. Kalit so'zlar: Pedagogik innovatsiya, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiyalar, didaktik o'yinlar, o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, texnologik xarita, interfaol metodlar

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda ularning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarni keng va oson o'zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to'g'ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. Darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko'plab metodlaridan foydalilanadi. Bola hayotida bog'chadan so'ng matabning dastlabki davrlari muhim o'rin tutadi. Shu bois boshlang'ich ta'lim davri ta'lim jarayonidagi eng mas'uliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o'stirishga qaratilgan har bir mashg'ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham bu davrda, avvalo, ta'lim jarayonini qiziqarli, ta'sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim. Chunki bu muddat bolaning o'yin faoliyatidan aqliy faoliyatga, ya'ni o'quv faoliyatiga o'tganligi bilan xarakterlanadi. Bolaning o'quv faoliyatini rivojlantirishda turli o'yinlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bolalar o'yin orqali o'z bilimlarini mukammallashtiradilar va



uni chuqur o'zlashtiradilar. Shu jihatdan qaraganda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarning roli beqiyosdir. Didaktik o'yinlar boshlang'ich sinflarda ta'limning samarali borishiga o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarishga ham katta yordam beradi, ya'ni didaktik o'yinlar vositasida nazariy bilimlar oson egallanadi, o'quvchilarning bilim olishga qiziqishlari ortadi. Didaktik o'yinlar nafaqat boshlang'ich sinflarda, balki ta'limning keyingi bosqichlarida ham o'quvchilarning bilimga bo'lgan ishtiyoqlari rivojiga katta turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa qiyin o'zlashtiruvchi o'quvchilarning bilish imkoniyatlarini oshirishga bunday o'yinlar samarali ta'sir ko'rsatadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinflar uchun yaratilayotgan o'quv qo'llanmalarida shu sohaga oid materiallar tanqisligi ko'zga tashlanib turadi.

Hozirgi davrda pedagogik texnologiyalar asosida ta'limni tashkil etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik texnologiya o'quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta'lim shakllarini amalga oshirish uchun ko'zlangan natijaga erishishda eng qulay yo'l va usullami tanlash va ishlab chiqish mahorati ekan, va u haqiqatan ham ta'lim jarayoni unumdarligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyada ta'lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo'lib, u rejalashtirilgan natijalarini kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o'qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e'tibor qaratishlari zarur. Har bir o'qituvchi avvalo o'zi o'qitadigan o'quv predmeti va har bir o'tiladigan darsi maqsadini aniq belgilashi kerak.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining har bir darsni tashkil etish uchun turli didaktik o'yinlardan foydalanishlari yaxshi samara beradi. Chunki 6-7 yoshli bolalar hayotida maktab davri ancha murakkab davr bo'lib, bolalar oldida jiddiy sinov turadi. Bola yangi hayot - maktab hayotiga kirib boradi. Endi u yangi jamoaning a'zosi ekanligini his etishga, intizomga bo'ysunishga, yangi rejimga moslashishga majbur bo'ladi. Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash,



ta`lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta`lim umumta`lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar tashkiliy usullari, o'tkazish metodlariga ko'ra o'quvchi ehtiyojiga mos tushishi kerak. Chunki bunday darslar bola ruhiyatiga yaqinroq bo'ladi. O'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'otish asosida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi hamda o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

Ma'lumki, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori natijaga erishish uchun dars jarayonini oldindan ketma- ketligini mo'ljallash kerak bo'ladi. Bunda o'qituvchi predmetning o'ziga xos tomonlarini, o'quv jarayonini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojini va imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi lozim. Darsning oldindan loyihasi, ya'ni texnologik xaritasi tuziladi. Texnologik xarita tuzish uchun o'qituvchi darsning har bir bosqichida amalga oshiriladigan ishlar, ularda o'qituvchining pedagogik va o'quvchilarning o'quv bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish yo'llari, teskari aloqani amalga oshirish, ularga ajratilgan vaqtini aniq belgilash



lozim. Texnologik xaritada albatta tashkiliy qism, yangi mavzuning motivatsiyasi, o'quvchilar bilimini tekshirish, yangi mavzuni o'rganish va uni mustahkamlash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va yakun yasash kabi bosqichlari bo'ladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchining dars davomida bajaradigan ishlari bosqichma-bosqich qayd etiladi. Dars texnologik xaritasining mukammal tuzilishi, maqsad va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish va bosqichlar o'rtaсидаги узвијлиќни та`minlash, vaqtдан unumli foydalanish imkonini beradi. Darsning turli bosqichlarida har xil interfaol usullardan foydalansa bo'ladi. Masalan, "Zinama- zina" texnologiyasi. Ushbu texnologiya o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushurib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. O'quvchilar bu texnologiya orqali guruhlarda ishlashga o'rganadilar, o'tilgan mavzuni sub'yekt o'qitish orqali mustahkamlaydilar. Xalqimizning kelajagi, mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo`lgan munosabatiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi ta'lim mazmunini modernizatsiyalash munosabati bilan oliy ta'lim muassasalarida talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash bo'yicha ishlar birmuncha jonlandi. 2017-yilda qabul kilingan «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror kasbiy oliy ta'limni o'zgarib borayotgan jamiyat va mehnat bozori ehtiyojlariga tez moslashishga yordam beruvchi yangi ta'limiy texnologiyalarni, jumladan, distansion, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va ulardan samarali foydalanishning zarurligi qayd etilgan. Turli kafedralalar (ayniqsa, pedagogika va psixologiya kafedralari) o'qituvchilarida pedagogik innovatsiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi ilmiy ishlarga katta qiziqish uyg'ondi. Biz tadqiq qilayotgan muammoga oliygohlardagi nisbatan ijobiy siljishlar shakllantiruvchi tajriba-sinovlar o'tkazishda hisobga olindi. Xalq ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, o'quvchilarning xilma-xil



faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi. Bu esa Xalq ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarни kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyat, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi. Xalq ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachidan chuqur pedagogik psixologik tayyorgarlik, har bir o'quvchining o'ziga xos jihatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi hamda shaxsiy reja tuzishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishi talab etiladi:

- vujudga keladigan pedagogik muammolarni bashorat qila olishi; buning uchun bo'lajak pedagog-tarbiyachi pedagogik jarayonda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko'ra bilish va uni bartaraf etish layoqatiga ega bo'lishi lozim;
- vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish metodlarini o'zlashtirishi;
- vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishning eng qulay usullarini tanlay va qo'llay olishi;

o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish, ularni qo'llab quvvatlash mahoratiga ega bo'lishi;

har bir o'quvchiga individual yondasha olishi;

o'quvchilar bilan ommaviy tadbirlarni tashkil eta olish ko'nikmasini egallashi;

- o'quvchilarni kitobxonlik, kitob sevarlikka unday olishi kabilar. Bo'lajak pedagog-tarbiyachi kasbiy mahorati bolalarni mакtab ta'limiga samarali tayyorlash imkonini beradi.



Pedagog-tarbiyachilarning faoliyatini pedagogik, psixologik, tashkiliy-metodik jihatdan o'rganish natijalari o`quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda pedagog-tarbiyachining shaxsiy sifatlari va uning kasbiy tayyorgarligi katta ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, pedagog tarbiyachining kasbiy mahoratga ega bo'lishi, bilimdonligi va kreativligi o`quvchilarda ongli faollik hamda mustaqillikni tarkib toptirishning asosiy omili hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak o`qituvchilar innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma'ruzalar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari davomida dialogga kirishish, fanga oid yangi ma'lumotlar ustida ishslash, mustaqil bilim olish, manbalar ustida ishslash hamda o'rgangan tajribalarini tahlil qilish muhim o'rinnegallaydi. Maktabda sinf faoliyatiga rahbarlik qilish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Pedagog-tarbiyachilar bolalarda atrof-muhit, tabiat, nutq va hisoblashga oid dastlabki ko'nikmalarni hosil qilish bilan bir qatorda ularni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladigan milliy urfodatlarimizni ham singdiradilar. Buning uchun xalq ta'lim muassasalarini modernizatsiyalashga oid yagona talablarni ishlab chiqish, ushbu talablar sifatli ta'lim va tayanch ko'nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi. Bo'lajak pedagog-tarbiyachilar kundalik ijtimoiy-siyosiy voqeliklarni tahlil qilish asosida ularni munosib baholash, shu asosda atrofdagilarning xatti harakatlariga tanqidiy munosabatda bo'lishlari lozim. Bularning barchasi o`quvchilarda ma'naviy xislatlarni tarkib toptirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Xalq ta'lim muassasasi pedagog-tarbiyachilar bolalarda ijobiy xislatlarni tarkib toptirish bilan bir qatorda, ular xulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarning oldini olish, ularni bartaraf qilish tajribasiga ham ega bo'lishlari kerak. O`qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o`qituvchi bo`lish uchun pedagogik nazariyani egallahning o`zagina etarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o`qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan usuliy g`oyalar bayon etiladi. O`quvchilarning yosh individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o`qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni



talab etadi.

Shuning uchun ham mustaqil O`zbekiston davlatining o`quv yurtlarida ishlaydigan o`qituvchi;

- pedagogik faoliyatga qobiliyatli, ijodkor, ishbilarmon;
- milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallagan, diniy ilmlardan ham xabardor, ma`naviy barkamol;
- O`zbekistonning mustaqil davlat sifatida taraqqiy etishiga ishonadigan, vatanparvarlik burchini to`g`ri anglagan, e`tiqodli fuqaro;
- ixtisosga doir bilimlarni, psixologik pedagogik bilim va mahoratni, shuningdek nazariy ilmlarni mukammal egallagan;
- o`qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko`radigan, har bir o`quvchisi ulg`ayib yaxshi odam bo`lishiga chin qo`ngildan ishonadigan, ularning shaxs sifatida rivojlanib, inson sifatida kamol topishiga ko`maklashadigan;
- erkin va ijodiy fikrlay oladigan, talabchan,adolatli, odobli bo`lmog`i darkor.

Xulosa qilib aytganda, bo`lajak o`qituvchilarni zamonaviy ta`lim talablariga javob beradigan darajada tayyorlash uchun pedagogik innovatsiyalarni chuqr egallashlari zarur. Boshlang`ich sinflarda samarali ta`lim jarayoni uchun interfaol metodlar, didaktik o`yinlar, texnologik xaritalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir darsni puxta rejlashtirish, o`quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olish, ularni bilimga qiziqtirish orqali mustahkam bilim va ko`nikmalar shakllanadi. Bo`lajak o`qituvchining kasbiy mahorati, ma`naviy yetukligi va ijodkorligi ta`lim samaradorligining poydevoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yilgi qarori – “Oliy ma`lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini kengaytirish to`g“risida”.
2. Xusanov A., Normatova B. – “Innovatsion ta`lim texnologiyalari”, Toshkent, 2020. Bobojonov Sh. – “Boshlang`ich ta`lim metodikasi”, Andijon, 2019.
3. Rasulova N. – “Pedagogik texnologiyalar asoslari”, Toshkent, 2021.Qodirova M. – “Didaktik o`yinlar va ularning o`quv jarayonidagi o`rni”, Ma`rifat, 2022.